



## Toshkent viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2026- yil yanvar-mart oyi uchun


- I. Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Toshkent viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026-yilning 1- aprel holatiga ko'ra viloyatda 7 102 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 446 tasi (*faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 6,2 foizi*) Chirchiq shahriga, 207 tasi (2,9 %) Yangiyo'l shahriga, 1 008 tasi (14,1 %) Zangiota tumaniga, 591 tasi (8,3 %) Qibray tumaniga to'g'ri kelmoqda.

#### Korxonalar soni

1- aprel holatiga ko'ra





## II. Toshkent viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 42 961,1 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,8 % ni tashkil etdi.

|                          | Hajmi,<br>mlrd so'm | Fizik hajm<br>indeksi, % da |
|--------------------------|---------------------|-----------------------------|
| <b>Toshkent viloyati</b> | <b>42 961,1</b>     | <b>107,8</b>                |
| Nurafshon sh.            | 1212,0              | 117,1                       |
| Olmaliq sh.              | 17244,2             | 110,4                       |
| Angren sh.               | 2018,2              | 106,1                       |
| Bekobod sh.              | 1919,3              | 104,6                       |
| Ohangaron sh.            | 1426,1              | 108,4                       |
| Chirchiq sh.             | 3883,1              | 112,0                       |
| Yangiyo'l sh.            | 242,6               | 108,1                       |
| Oqqo'rg'on               | 415,6               | 116,4                       |
| Ohangaron                | 2589,1              | 103,6                       |
| Bekobod                  | 134,1               | 109,1                       |
| Bo'stonliq               | 671,5               | 102,2                       |
| Bo'ka                    | 143,5               | 112,3                       |
| Quy Chirchiq             | 341,2               | 110,7                       |
| Zangiota                 | 1111,0              | 106,6                       |
| Yuqori Chirchiq          | 955,4               | 113,5                       |
| Qibray                   | 2924,7              | 110,2                       |
| Parkent                  | 289,4               | 106,2                       |
| Pskent                   | 837,9               | 116,4                       |
| O'rta Chirchiq           | 447,7               | 110,8                       |
| Chinoz                   | 347,5               | 123,3                       |
| Yangiyo'l                | 668,1               | 106,8                       |
| Toshkent                 | 887,6               | 107,1                       |




### Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Olmaliq shahrida (114 018,1 ming so'm), Ohangaron shahrida (33 330,7 ming so'm), Ohangaron tumanida (25,547,1 ming so'm), Qibray tumanida (16 047,4 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (13 562,6 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, Angren shahrida – 104,6 %, Olmaliq shahrida – 108,9 %, Ohangaron shahrida, – 106,8 %, Oqqo'rg'on tumanida – 114,9 %, Piskent tumanida – 114,7 % ni tashkil etib, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

#### Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Yanvar-mart oylarida




### Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026- yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush qayta ishlash sanoati hissasiga to'g'ri kelib **37 034,3** mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **86,3** % ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda **1 610,4** mlrd so'm (3,7 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **4 134,4** mlrd so'm (9,6 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda **181,9** mlrd so'm (0,4 %)ni tashkil etdi.

**Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi,  
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi**

**B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash  
**C** - Ishlab chiqarish sanoati  
**D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash  
**E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish



**III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan  
ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2026- yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 10 632 ming tonna shakar, (59,4 % ga kamaygan), 2 528,1 ming litr pivo mahsulotlari (1,2 % ga ko'paygan), 198,9 ming tonna portlandsement (21,5 % ga kamaygan) hamda 17 322,3 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (24,4 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.


| Sanoat mahsulotlari                | 2024- yil yanvar-mart | 2025- yil yanvar-mart | 2026- yil yanvar-mart |
|------------------------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|
| Yumshoq bug'doy spelta uni, ming t | 13,2                  | 13,9                  | 17,3                  |
| Shakar, ming t                     | 16,3                  | 26,1                  | 10,6                  |
| Portlandsement, ming t             | 210,3                 | 253,1                 | 198,9                 |

### Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,6 % (2025- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,5 % (2025- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 125,5 %) ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,2 % ni (2025- yilning yanvar-mart oylarida 1,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 9,6 % (7,2 %), o'rta-quyi texnologiyali 55,9 % (52,1 %), quyi texnologiyali 20,3 % (19,1 %) ni tashkil etgan.





### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026- yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 92,6 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 91,9 % ni tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari                                | 2024- yil yanvar-mart | 2025- yil yanvar-mart | 2026- yil yanvar-mart |
|----------------------------------------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|
| Jami ishlab chiqarilgan elektrenergija, mln kv.t.s | 3311,4                | 4707,4                | 5162,3                |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal                     | 960,2                 | 1002,7                | 1085,4                |


### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilarida 26,9 % ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 8,8 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 7,5 % ga ko'payish kuzatildi.

| Sanoat mahsulotlari                                                                             | 2024- yil yanvar-mart | 2025- yil yanvar- mart | 2026- yil yanvar-mart |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------|------------------------|-----------------------|
| Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm | 26,9                  | 27,9                   | 66,3                  |
| Xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar- mlrd so'm                                    | 1,3                   | 0,3                    | 8,8                   |

#### **IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 10 696,9 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 24,9 % ni tashkil etdi. (2025-yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 23,5 % ni tashkil etgan).



#### **V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

**Sanoat bu** – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

##### **Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)**

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.



**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### **Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif**

**Fizik hajm indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi** asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

### **Metama'lumot uchun havola:**

<https://Toshvil.stat.uz>

---

#### **Tayyorlash uchun mas'ul:**

Sanoat va energetika  
statistikasi bo'limi

#### **Ijrochi:**

S.Zoyirboyev  
(4512)

**Manzil:** Toshkent shahar, Mirobod tumani, Yangi Qo'yliq ko'chasi, 2-uy

---